



ADABIYOT DARSLARIDA ABDULLA QODIRIY HAYOTI VA IJODINI O'RGANISHNING INTERFAOL METODLARI

Abruyeva Moxigul Ilxomovna

Samarqand davlat universiteti Filologiya fakulteti 4-kurs talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7809741>

ARTICLE INFO

Received: 29th March 2023

Accepted: 07th April 2023

Online: 08th April 2023

KEY WORDS

Qodiriy, jadidchilik, "Mehrobdan chayon", realizm, interfaol, "Teskari test" metodi, "Evristik" metod, mufti.

ABSTRACT

Ushbu maqolada adabiyot darslarida Abdulla Qodiriy ijodini o'rganishning samarali usullari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, o'quvchilar qalbini Qodiriy shaxsiyatiga, ijodiga oshno qiladigan jihatlariga to'xtalib o'tilgan.

Ma'lumki, yaqin yillar ichida muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ta'lim sohasida ko'plab o'zgarishlar amalga oshirildi, xususan, innovatsiyalar, yangilanishlarga e'tibor kuchaydi. Prezidentimizning 2020-yil 2-yanvardagi mamlakatimizni yanada rivojlantirish to'g'risidagi parlamentga murojaatnomasida ta'lim timizini qaytadan isloh qilish, ona tilini yanada yuksaltirish, uni yuqori cho'qqiga olib chiqish, xususan, adabiyotga katta e'tibor qaratish masalalarga to'xtalib o'tdilar.

Shu jumladan, Prezidentimiz jadidlar haqida: "Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi", - deb o'z fikrlarini bildirib o'tdilar¹

Yuqoridagi fikrlarga ergashga holda maktab darsliklarida jadid namoyondalari asarlarini o'rganishga ko'proq o'rin ajratilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Masalan, Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini maktab darsliklarida o'qitilishini bilimimiz darajasida darsliklararo tahlilga tortadigan bo'lsak, Abdulla Qodiriy asarlari eski adabiyot darsliklarida 5-, 7-, 10 -sinflar kesimida 1 soatga mo'ljallab o'qitilgan bo'lsa, hozirgi yangilangan adabiyot darsliklarida esa 5 soat, ya'ni 1-soati Abdulla Qodiriy. "Mehrobdan chayon" romanidan boblar: Muallif hayoti va ijodi. "Asarni o'qishga tayyorlanamiz" bosqichi topshiriqlari bilan ishlash, 2- soati "Chayonning namoyishi" bobi tahlili, 3-soati "Ikki xil sadoqat" va "Barimta" boblari tahlili, 4-soati "Xayr endi, Ra'no" va "Qo'rqunch bir jasorat" boblari tahlili, 5-soati Abdulla Qodiriy. "Mehrobdan chayon" romanidan boblar: "Muhokama qilamiz" bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Maktub yozish. Loyiha. Epik tur va janrlar kabi

¹ Mirziyoyev Shavkat 2020-yil 24-yanvardagi Parlamentga Murojaatnomasi



mavzularga mo'ljallangan. Xo'sh, darsliklarda bu yozuvchi hayoti va ijodi bir xilda o'rganiladimi? Bu masalaga imkoniyatimiz doirasida to'xtalmoqchimiz.

Professor Qozoqboy Yo'ldoshev o'zining qo'llanmasida bu borada: *"...adabiyot darslarida hamisha yozuvchilarning tarjimai hollariga oid ma'lumotlar beriladi. Bu ma'lumotlar, ko'pincha, bir necha sinflarda takror-takror keltiriladi va biri-biridan jiddiy farq qilmaydi. Yuqori sinflarda esa tarjimai holga juda katta o'rin ajratilib, adibning hayoti va ijod yo'liga ancha batafsil to'xtalinadi. Shuning uchun ham o'quvchilarimiz adiblarni faqat ism-u sharifi va yozgan asarlaridangina farqlay olishardi, xolos"*,² deya, darsliklar kesimida ko'zga yaqqol tashlanadigan kamchiliklarga barchaning diqqatini qaratgan². Bundan tashqari, Q.Yo'ldoshev 7-sinf uchun yozilgan "Adabiyot" darslik majmuasiga yozgan metodik qo'llanmasida adiblarning tarjimai hollarini yoritishda shu vaqtgacha qaror topgan qoliplarga rioya etmay, bolalarning tafakkuriga, hissiyotiga ta'sir qiladigan, ularni loqaydlikdan chiqaradigan ma'lumotlarni berish kerakligini eslatadi.

Darhaqiqat, zamonaviy ta'lim dasturi, xususan, uning yetakchi xususiyatlari havola qilingan ijodkorlarning nafaqat ijod namunalari, balki hayoti haqidagi ma'lumotlarni o'rganish vositasida, tom ma'noda, o'quvchi ma'naviyati, tafakkurini shakllantirish, yoshlarda milliy ruhni o'stirish, fikrlash salohiyatini rivojlantirish, ijodkor shaxsiga xos namunaviy sifatlar ta'sirida o'quvchilarni adabiyotga, ilmga bo'lgan mehri, hurmatini o'stirish, ijodkorni shaxs sifatida ruhiyatini anglash barobarida millat darddi bilan yashashlik, millat dardini anglashlik kabi xislatlarni o'quvchilar fitratida qaror toptirishdan iboratdir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqsak, Abdulla Qodiriy qoldirgan adabiy merosi bilangina emas, balki bosib o'tgan mashaqqatli hayot yo'li, tabiatidagi otashvashlik, yaxshi fazilatlar, qolaversa, Vatan istiqboli yo'lida chekkan zahmatlari bilan ham o'quvchilar ruhiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Yangilangan 7-sinf adabiyot darsligiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi to'g'risida juda qisqa ma'lumotlar berilganligiga guvoh bo'lamiz. Nazarimizda bu ma'lumotlar maktab o'quvchisi ongida ijodkor shaxsiyatini anglash, tafakkurida ijodkorni o'zi uchun kashf qilishi, u yashagan muhit, qolaversa, davr ruhiyatiga tushishi uchun yetarli emas. Aytaylik, keltirilgan ma'lumotlarga qo'shimcha tarzda *Habibulla Qodiriyning "Otam haqida"* kitobidan; *"Qodiriy Xudoyor saltanatini, davrini tasvirlashga kirisharkanlar, faqat ayrim voqea, og'zaki xabarlar bilan cheklanib qolmaydilar. "O'tkan kunlar"dagi kabi bu roman uchun ham o'sha davrga oid turli tarixiy ma'lumotlarni sinchiklab o'rganadilar... Ammo u kishini bir narsa ancha vaqt o'ylatadi, izlatadi, qiynatadi.*

- *"Mehrobdan chayon"ni yozishga tayyorlandim. Hamma narsa taxt: romanning shakli, qahramonlari, voqealari, asarning qanday xotimalanishi ko'z oldimdan davra olib o'tib turadi. Ammo ishni qayerdan, nimadan boshlash, davraga qanday kirib boorish masalasi meni o'ylatar, qiynar edi,- degan edilar dadam bir vaqt, oilaviy tush o'tirishda tush to'g'risida suhbat bo'lganda,- bir kun tush ko'rdim. Go'yo, mahdum domla go'sht, piyoz ko'tarib machitdan chiqib kelar va uzoqdan meni o'ziga imlab, qo'lidagilarni ko'rsatar edi. Uyg'onib ketdim. Ajablanib, xayol surib yotdim va birdan uyg'onib ketdim. Chunki ishning uchi topilgan, romanning qanday-qayerda boshlanishi aniqlangan edi"*³ kabi Abdulla Qodiriyning ijodiy mahoratini ochib

² Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. -T.: O'qituvchi, 1996. 63-b

³ Habibulla Qodiriy. Otam haqida (Xotiralar). -T: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.



beruvchi, chunonchi, adibning adabiyot bo'stoniga kirib kelishi, asarlarining yaratilishi, jumladan "Mehrobdan chayon" romani aslida qanday dunyoga kelganligi, adib haqida nafaqat o'zbek adabiyoti namoyondalari, balki Yevropaning taniqli yozuvchilari tomonidan yozib qoldirilgan, qozoq yozuvchisi **Muxtor Avezov**: *"Abdulla Qodiriy yuksak romanlar yaratdi. Uning romanlari 1920-yillarda, go'yo tekis sahroda to'satdan "Pomir" tog'lari vujudga kelganday paydo bo'ldi..."*⁴, nemis adabiyotshunosi **Niota Tun**: *"Abdulla Qodiriy... bugungi kunda o'z mamlakatida ham, chet ellarda ham juda kuchli qiziqish uyg'otgan sovet O'rta Osiyosi adabiyotining o'sha yillardagi to'liqlik taraqqa qilish boshida turgan edi"*⁵, **Abdulla Qahhor**: *"Abdulla Qodiriy.. anchayin bir yozuvchi emas, yangi davr adabiyoti, Yevropa adabiyoti gazi bilan o'lchanganda ham to'laqonli asarlar yozgan, o'zbek romanchiligini boshlab bergan ulkan adibdir. Uning "O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlari, bir talay hajviy asarlari xalq orasida g'oyat mashhur bo'lib, har bir o'zbek oilasiga, hatto savodxon bo'lmagan oilalarga ham kirib bogan edi"*⁶ singari yuqoridagi iliq xotiralari, hayotiy voqealardan parchalar keltirilsa, o'quvchi qalbida Qodiriy shaxsiga nisbatan ulkan muhabbat va ehtirom uyg'onadi, albatta.

7-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan adabiyot darsligida Abdulla Qodiriy mavzusini o'rganishdan avval kirish mashg'ulotlarini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Bu kabi kirish mashg'ulotlari o'quv dasturida ko'zda tutilgan bir qancha vazifalarni hal etishda ko'maklashadi:

- Abdulla Qodiriy o'zbek romanchiligining asoschisi
- O'zbek adabiyotiga realism janrining kirib kelishida Qodiriyning xizmatlari
- "Mehrobdan chayon" romanining o'zbek adabiyotida tutgan o'rni

Chunonchi, dars jarayonida asarning tarixiylik, badiiylik darajasi yoritilayotganda o'qutuvchi tomonidan adabiyotshunos olimlar, yozuvchilar Odil Yoqubovning "Abdulla Qodiriy o'qiganda", Bahodir Karimovning "So'z so'zlashda...andisha kerak" kabi maqola va risolalaridan ko'chirmalar o'qib berilsa dars mazmunli o'tadi, o'quvchi bilan Qodiriy orasidagi masofani qisqartirish, ularni bir-biriga yaqinlashtirish, adib bilan hamnafas bo'lishiga katta omil bo'lib xizmat qiladi.

Xullas, darsni **evristik metod**dan foydalangan holda tashkil qilish mumkin. O'quvchilar "Mehrobdan chayon" romanidan berilgan parcha bilan to'liq tanishib chiqqanlaridan so'ng, asar o'qituvchi bilan birgalikda tahlil qilinishi lozim. Ular o'z xulosa va qarashlarini darslik muallifiniki bilan qiyoslashlari mumkin. Ammo darslik muallifi tomonidan keltirilgan xulosa ham ular kabi oddiy kitobxon xulosasi ekanligini, bu bilan o'quvchi ongidagi xulosa yo'qqa chiqmasligi o'qituvchi tomonidan ta'kidlab o'tilishi lozim. Eng avvalo, tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar ro'yxati darstaxtaga yozib izohlanadi (*mufti – oliy lavozimli ruhoni, ululamiy – ulug' amir, qadrnoshunos – odam qadrini bilmaydigan, "Innalloha ma'assobirin" – Alloh sabr qiluvchilar bilan birgadir, kullu yavmin batar – kundan kun battar, har ro'z – har kuni, tancha – sandal, havodis – hodisalar, muroqaba – mushohada qilish, qarobat – yaqinlik, aztahidil – astoydil, tag'oful – bilmaslik, mardum – odamlar*). Ikkinchi bosqich esa, o'qituvchi uyda mustaqil tuzib kelgan va darslikda keltirilgan savol-topshiriqlar yordamida asar tahliliga

134-bet

⁴ "Guliston" jurnalida (1974-yil, 4-son)

⁵ O'sha jurnal

⁶ O'sha jurnal



o'tadi. Avvalo, birinchi navbatda asarga qo'yilgan nomga diqqat qaratiladi. Mohiyati anglashilgandan so'ng, o'quvchilar darslikda keltirilgan "Mehrobdan chayon" romanidagi parchalarning matnidan kelib chiqib unga sarlavha qo'yishadi. Bu bilan sarlavha qo'yibgina qolmay, balki nima uchun bunday sarlavha qo'yilgani o'quvchi tomonidan tahlil qilib beriladi. Bu sarlavhaga boshqa o'quvchilar tomonidan ham fikr bildirilsa nur ustiga a'lo nur.

Matn tahlili davomida asarda berkitilgan hayotiy, badiiy haqiqatlarni o'quvchi o'zi tafakkur qilgani ma'qul. "Chayonning namoyishi" bobi tahlilida o'quvchining diqqati, avvalo, tasvirlangan muhitgan qaratilishi lozim. Bob boshida tilga olingan tokchada terilgan *"Sharhi mullo Jomiy"*, *"Aqoidi ma'-alhavoshiy"*, *"Hikmatul-ayn"*, *"Al-viqoya"*, *"Siyari sharif"* kabi kitoblarga nega ishora qilingan? Ularning nomlari tilga olinishi qanday ma'no kasb ettiradi? Bob Shahodat mufti, mulla Abdurahmon, Kalonshoh mirzolarining suhbatini bilan boshlangan. Bob tahlilida o'quvchining diqqatini, avvalo, o'rtada kechayotgan suhbatga qaratish lozim. Ularning o'zaro suhbatidan nima anglashilganligi haqida, bu uch umarolar o'quvchida qanday taassurot uyg'otganligi haqida fikrlashish lozim. Mulla Abdurahmonning shaxsi: *"Xuftanni o'qug'andan so'ng tahorat yangilab yurguchi mulla Abdurahmon hujra eshigida ko'rindi."* tarzida ta'riflangan, aslini olganda ham uning tabiati xatti-harakatlariga mosmi? Nima uchun bu uch obrazga Qodiriy bunday nom bergan? Sultonali haqida: *"- Chamasi, nisfi shab - yarim kecha asnosi, do'stim, deb yonida qiz, Sultonlining uyiga kelgan. Sultonali tong otquncha ikki go'dakning qo'ynini puch yong'oqqa to'latib chiqqan, erta bilan ular uyquda yotqanda, Sultonali o'rdag'a yugurib kelgan; voqi'ani tunqotar g'a so'zlab, tunqotar xong'a yo'liqib, xonning buyrug'i bilan yonlarig'a yasovullar olib kelsalar, oshiq-ma'shuq yo'q, ular joyida Sultonliga atalg'an bir sabnoma bor... Chamasi, Sultonali ablahlik qilib, Anvarni bad oldirib qo'yg'an va tong vaqti, ular uyquda ekan choqda g'oyib bo'lib, yana shubhani ortdirg'an bo'lsa kerak. Sultonali Anvar bilan qizni tutib beralmasa ham, baharhol xong'a yaxshi ko'rinib, Anvarning o'rnini olishqa muvaffaq bo'ldi. Barcha havodis mana shundan iborat"*⁷, deb Shahodat mufti tomonidan aytilgan hodisotdan kelib chiqilsa, Sultonali aslida qanday odam? U rostdan ham qiyomatli do'sti Anvarga xiyonat qilganmi? Yozuvchi nima uchun dastavval Shahodat mufti tilidan Sultonali xiyonatkor ruhda ko'rsatdi-yu, mulla Abdurahmon nutqida esa: *"- Bu hammasi Sultonali bilan Anvarning o'yunidir, deb o'ylayman... Bu andishamga bir necha sabablar ham bor. Janoblardan maxfiy emasdirkim, biz o'zaro qanday yaqin bo'lsa, Sultonali bilan Anvar ham o'zaro shunday qalin do'st edilar. Binobarin, aql g'a "qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qur ekanmi?" degan savol keladir; janoblar shu borani qanday tushundilar ekan"*⁸, deya tangananing ikkinchi tomonini ochdi? Adib Shahodat mufti tilidan aytilgan jumlaning kiritmasligi ham mumkin edi-ku?! Bu jumlar zimmasida qanday yuk bor? O'quvchi buni mustaqil tafakkur qilishi lozim.

Asar qahramonlari xatti-harakatlari tasviridan kelib chiqib darslikda keltirilgan savollardan tashqari; "Shahodat mufti qanday odam?", "Mufti nima uchun Abdurahmonning aqliga tasanno o'qidi?", "Ular orasida eng tashabbuskor sifatida kimni baholasa bo'ladi?", "Ular xonga yo'llagan arizaning mazmuni qanday bo'lishi mumkin?", "Bu uch umaroni birlashtirib turgan jihatlari bobning qayerida ko'zga tashlanadi?", "Chayonning namoyishi bobida asli chayon kim?" kabi har bir personajlarning shaxsiyatiga xos sifatlar, xarakteriga xos

⁷ 7-sinf Adabiyot.-Toshkent,2022. 130-bet

⁸ O'sha kitob



xususiyatlar va ularning asarda qay tarzda ifoda etilganligi haqida o'quvchilarni o'ylantiradigan, har birini munosabat bildirishga majbur etadigan savollar o'qituvchi tomonidan o'rta tashlanishi lozim.

Hech kimga sir emaski, obraz yaratish murakkab jarayondir. Har bir obraz tarixiy, hayotiy voqea va badiiy to'qima faktlarning tajassumidir. Shahodat mufti, Kalonshoh, mulla Abdurahmon davlamand va saroy muhiti vakillari, amir Umarxon, amir Bahodir, mulla Muhammad Niyoz -hukmdor sinf vakillari, adib bu obrazlarni yaratar ekan, real protiplarga va tarixiy xronikal materialga tayangan; Nigorxonim, Ra'no, Anvar, Sultonali kabi xilma-xil xarakterdagi obrazlarni yoritish yozuvchidan ancha mahorat talab qilgan va shuni e'tirof etmoq joizki, buni adib uddasidan chiqqan. Yozuvchining shu mahoratidan kelib chiqib, dars jarayonida asarni tahlil qilishda **"Teskari test"** metodidan foydalanish ham asar qahramonlarining portretini chizishda juda qo'l keladi. Bunda testning javobi belgilanadi va o'quvchilar shu javobga muvofiq savol tuzadilar va bu metod javobga nisbatan qanday fikrlar borligini ko'rsatadi, shuningdek o'quvchidan izlanish, tafakkur qilishni talab etadi

TESKARI TEST METODI

1. ?

- a) Sultonali
- b) Shahodat mufti
- c) Mulla Abdurahmon
- d) Mirzo Anvar

- 1. Sultonali egallab turgan mansabga ko'z tikayotgan qahramon kim?
- 2. "Suygan yorim sen bo'lsang, ko'rgan kunim ne bo'lg'ay" iborasi kimning tilidan aytilgan?
- 3. Umarolar orasidagi eng tadbirshunosi qaysi?
- 4. Xonga imzosiz ariza yozish fikri kimdan chiqqan edi?

Bu metod bir tushunchaga kengroq yondashishda, kam vaqt ichida katta natijaga erishishda yordam beradi. "Teskari test" metodi asosida romandagi har bir obrazga tavsif berar ekanlar, o'quvchilar erkin fikrlashga o'rganish bilan birga, ularga xos xususiyatlardan kelib chiqib, milliylik – tashqi belgi emas, balki u ichki holat ekanligini ham tahlillar asosida ochib berishadi

Asar tahlili so'ngida asar tili haqida nazariy ma'lumotlar berish ham ko'zda tutilgan. Qodiriy ijodida hukm suradigan milliy ruh, xalqonalik asar boshdan-oxir til mahoratini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lganligi uchun ham nazariy xulosalar "Mehrobdan chayon" asari misolida amalga oshirilsa, maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, uyga vazifa sifatida asarni davom ettirishni topshirish mumkin. Asar qahramonlarining keying hayoti haqida qog'ozga o'z fikr va mulohazalarini yozishlari mumkin. Bu ham o'quvchini ko'proq tafakkur qilishga, bilim doirasini kengaytirishga yaxshi omil sifatida xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, "Mehrobdan chayon" romanini ta'lim bosqichlarida o'tish o'qituvchidan mahorat, o'quvchidan matonat talab qiladi. Hozirgi kun o'quvchisning o'z dunyoqarashi, zamonaviy olami, shaxsiy fikri va tasavvuri bor. U asarni to'g'ri va xolis baholaydigan, yangi ko'rinishlarini ko'ra oladigan, uni yangicha talqin qila oladigan iqtidorga egadir.



References:

1. Mirzoyoyev Sh. 2022-yil 24-yanvardagi parlamentga qilgan murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi
2. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. -Toshkent: "Sharq",2012. -288 b.
3. "Guliston" jurnali.1974, 4-son
4. Habibulla Qodiriy. Otam haqida (Xotiralar). -Toshkent: "G'afur G'ulom", 1983
5. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. -Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2006
6. 7-sinf uchun darslik / Z. I. Mirzayeva, K. Q. Djalilov. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 224 b.
7. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: "O'qituvchi", 1996.